

O'ZBEKISTONI URUF-ODATLARI VA MILLIY KIYIMLARI

Shahrisabiz davlat pedagogika instituti ijtimoiy

Tarix yo'nalishi talabasi **Shodiyeva Shahnoza**Ilmiy rahbar: **Maxmudov Dilshod**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15848178>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xalqining urf-odati, marosim va bayramlarining an'anaviyligi haqida va millatning an'analari ifodalovchi avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan bebaho merosimiz haqida gap boradi. Markaziy davlatlar orasida O'zbekistonning milliy qadriyatlari va urf odatlari.

Kalit so'zlar: "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" urf-odatlari, bayramlari, do'ppi, chopon, milliy-madaniy meros, to'nlar, ko'ylaklar, yaktaklar, qalpoqcha, ro'mol, kallapo'sh, baxmal, sidirg'a shoyi, satanga ip, ipak, zar iplar, salla.

Annotation: In this article, the customs, ceremonies and rituals of the Uzbek people. It talks about the traditionality of the holidays, the diversity of national costumes, and about our priceless heritage that is passed down from generation to generation, representing the traditions of the nation.

Key word: "High spirituality is an invincible power" traditions, holidays, hats, shepherd's hats, national cultural heritage, coats, dresses, jackets, caps, shawls and caps, velvet, silk, satin thread, silk. dice thread turban.

O'zbek xalqining urf-odatlari asrlar ko'p millatlar, davlatlar, qabilalar, uyg'unlashuvdagi murakkab jarayonda tarkib topgan. O'zbek oilasining asosiy o'ziga xos xususiyatlari mehmonlik va yosh kattalarga hurmat ehtirom qilish birinchi o'ringa qo'yishadi. O'zbeklar odatda qadimdan ser farzand bo'lishgan ular bitta hovlida ahil va inoq yashashga o'rgangan edi. Ular mehmonlarni kutub olishda erkaklar qo'l berib ko'rshadi, ayollar esa o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib ohista bosh egib salomlashadi. Bunaqa ajoyib bayram va an'analarmiz hududimizni turli javhalarda ko'rshimiz mumkin atlas va adras matolari turli hil choponlar o'zbeklarga xos bo'lgan milliy libos desak adashmagan bo'lamiz, bundan tashqari milliy qadriyatlarimiz keng tarixga boy bo'lib, avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. To'ylar o'zbek urf-odatlarining eng muhim qismidir:

Fotiha to'yi – yoshlarni unashtirish marosimi.

Nikoh to'yi – diniy va rasmiy nikoh marosimi.

Kelinni olib kelish – kuyov tarafidan kelinni tantanali olib kelish.

To'ylarda doira, qoshiqchalari bilan raqs, xalq qo'shiqlari, milliy kiyimlar va an'anaviy taomlar muhim o'rin tutadi. Beshik to'yi yangi tug'ilgan chaqaloqni beshikka solish marosimi bo'lib, oilada bolaga mehr berish, uni duo bilan ulg'aytirish niyatida o'tkaziladi. Sunnat to'yi o'g'il bolalar yetti yoshga to'lganda ularni sunnat qilish marosimi o'tkaziladi. Bu ham katta tantana bilan, qo'shnilar, qarindoshlar taklif qilinib o'tkaziladi. Shu bilan birgamilliy bayramlardan biri bu Navro'z — bahor bayrami, yangi yilning boshlanishi sifatida nishonlanadi. Ko'p joylarda sumalak, halim, ko'klam taomlari tayyorlanadi. Xalq o'yinlari, kurash, qo'shiq va raqslar tashkil etiladi. Matam marosimlari yaqin kishining vafoti holatida 3, 7, 20, 40 kunlik va 1 yillik esdalik yig'inlari o'tkaziladi. Qur'on tilovat qilinadi, sadaqalar beriladi. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining maxsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan

odamlarning orzu - umidlari, isatlari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm - rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi, o'zbek milliy qadri-yatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq vaqt davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri - biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. *Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch"* kitobida qayd etilganidek, "Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Milliy qadriyatlar o'sha mil-latga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazi-latlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy - madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk o'zgartirishlar berildi. Har bir davirda har xil hududda turlicha saqlanib qolgan ba'zi joylarda Yana bir qancha qadriyatlarmiz va marosimlarga hos milliy kiyim liboslar mavsumga qarab kiyishadi. Mahalliy xalqlar kiyimlarining o'ziga xosligi azaldan iqlimiy, maishiy sharoitlar va urug'-qabila an'analari bilan belgilanar edi.[2] XIX asrdayoq kiyim (to'nlar, ko'ylaklar, yaktaklar qadimgi xususiyatlarga ega edi: keng, butunligicha bichilgan, uzun kiyim keng tushib turib, inson tanasining shakillarini yashirib turar edi. Kiyim bir tariqa tikilgan: erkaklar, ayollar, bolalarning kiyimlari, yozgi va qishki kiyimlar shakli va bichilishi, tikilishi o'xshash bo'lar edi. An'anaviy milliy erkak kiyimi belbog' bilan bog'langan, qavilgan issiq to'n - chopon, do'ppi nomli bosh kiyimi va nafis charmdan tikilgan etikdan iborat edi. Erkaklar to'g'ri bichilgan yaktaklar, ostki ustki choponlarni kiyar edilar. Chopon yengil yoki issiq, paxta qo'shib qavilgan bo'lishi mumkin edi. Chopon yonidan yurish va yerda o'tishi oson bo'lishi uchun kesiklar bor edi[3]. Chopon odatda belbog' - qiyiqcha ro'mollari bilan bog'lanar edi. Bayramona milliy kiyim har kungidan foydalangan matolarning go'zalligi va nafisligi, bezaklari va kashtalari kabilar bilan ajralib turar edi. Ayollarning milliy kiyimi chopon, to'g'ri bichilgan va xonatlasdan tikilgan qulay ko'ylakdan, pasti torayib boradigan keng yupqa ishton - lozimdan iborat. Ayolning bosh kiyimi uchta asosiy qismidan tarkib topgan: qalpoqcha, ro'mol va kallapo'sh. bayramona ayol kiyimi tikilgan matolarining nafisligi va chiroyliligi bilan ajralib turadi. Bolalarning kiyimlari kattalar kiyimini takrorlab edi.[4] Umumiy xususiyatlari bilan birga har bir tuman yoki qabiladagi kiyimlar ishlatiladigan matosi, bichish shakli va usuli va shu kabilardan iborat bo'lgan farqli xususiyatlariga ega bo'lgan. An'anaviy o'zbek kiyimidagi asosiy detallardan biri bu bosh kiyimdir. Markaziy Osiyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda milliy bosh kiyimi do'ppi hisoblanadi. Do'ppi nomi turkiy "tube" dan kelib chiqqan bo'lib, "yuqori, tepa" deb tarjima qilinadi. Uni erkaklar, ayollar va bolalar kiyishadi. Faqat yoshi katta ayollar do'ppi kiymaydi. Qadimdan eroniy va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston hududida) milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do'ppilaridan o'zbek do'ppilari o'ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Eng boy xilma-xilligi bilan O'zbekistonda do'ppi tikish bo'yicha oltita asosiy maktab mavjud: Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va Xorazm-Qoraqalpoq ushbu hududlar eng taraqqiy etgan mintaqah hisoblanadi. Maxsus tadbirlar uchun nafis do'ppilar mavjud - ular yorqin va rang-barang kashta va naqshlarga, tilla kashtalarga boy. Shakli to'rtburchak (kvadrat) shaklida bo'ladi. Cho'qqilari uchi o'tkir (cho'qqisimon), ba'zan esa

engillik uchun biroz yassilangan. An'anaviy uslubda qattiq qilib qaviladi, ya'ni ichiga karton yoki qattiq mato solinadi. Naqshi va bezagi Toshkent do'ppisida eng ko'p uchraydigan naqsh — "chorsu" deb ataladi, bu naqsh to'rt tomonida bodom shaklidagi yoki yaproqsimon elementlardan iborat bo'lib, har bir burchakda joylashgan bo'ladi. Markazda mitti gullar yoki hilol bezaklari bo'lishi mumkin. Rangi asosan qora yoki qora-yashil, naqshlari esa oq ipak bilan tikilgan bo'ladi. Ramziy ma'nosi to'rt tarafdagi naqshlar yurt barakasi, do'stlik, mehr-oqibatni anglatadi. Ba'zan markazdagi hilol va yulduzlar musulmonlik timsoli sifatida ishlatilgan farqlanishi boshqa do'ppilardan. Mintaqa, naqsh turi, shakli rangi,

Toshkent Chorsu, oq ipak tikuv To'rtburchak, qattiq Qora, qora-yashil

Buxoro Zar tikuv, gullar Yumaloq, yassi Oltin-qizil

Farg'ona Gullik, mayda bezak Yassi, yupqaroq Rangsar, ko'p rangli

Xorazm Geometrik, silliq naqsh Yassi, qattiqroq Ko'k, oq, qizil naqshlar bilan bezatilgan do'ppi uch qismdan – tepa (aylana va to'rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan, O'zbekistonning turli joylarida turlicha bezatiladi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bosh kiyim do'ppisi boshqa hududlardan farqi shuki, Qashqadaryo do'ppisi to'rtburchak yoki biroz yumaloqroq. Asosan qora yoki jigarrang matodan tayyorlanadi. Bodomsimon va geometrik naqshlar, o'rtada "xol motiflari" — bu qadimiy turkiy belgilarni eslatadi. Tikuv: Odatda oq ipak yoki rangli ipak iplar bilan ishlanadi. Bezaklar: Kamroq pardozlangan, sodda va erkaklar uchun mo'ljallangan. Qishloq joylarda ayollar uchun yirikroq naqshli, tilla iplar bilan ishlangan variantlari ham bor. Surxondaryo viloyatida ko'proq dumaloq yoki yassi holatda bo'ladi. Qashqadaryo do'ppisi to'rtburchak yoki biroz yumaloqroq, qora yoki jigarrang matodan tayyorlanadi. Bodomsimon va geometrik naqshlar, o'rtada "xol motiflari" — bu qadimiy turkiy belgilarni eslatadi. Odatda oq ipak yoki rangli ipak iplar bilan ishlanadi. Bezaklar: Kamroq pardozlangan, sodda va erkaklar uchun mo'ljallangan. Qishloq joylarda ayollar uchun yirikroq naqshli, tilla iplar bilan ishlangan variantlari ham bor. Ko'proq dumaloq yoki yassi holatda bo'ladi. qismlari birlashtirilganda turlicha ko'rinishga ega bo'ladi.[5] Do'ppi tikuvchi usta do'ppido'z, do'ppi tikish kasbi esa do'ppido'zlik deb ataladi. Do'ppi asosan baxmal, sidirg'a shoyi, satinga ip, ipak, zar iplar bilan kashta tikib tayyorlanadi. Tayyorlangan joyi (Chust, Marg'ilon, Toshkent, Shahrisabz va boshqalar), mo'ljallangan kishilarning yoshi va jinsiga (erkak, ayol, bolalar), shakli (o'tkir uchli, konussimon, yarim doora, chuqur tubli, dumaloq, karjli va boshqalarga) ko'ra do'ppilar xilma-xil va rang-barangdir. Dastlabki do'ppilar shakli o'tkir uchli qilib salla bilan kiyishga mo'ljallab kizagi keng jiyakli qilib tayyorlangan. 1920-yillardan do'ppi shakli o'zgardi: tepasi dumaloq yoki murabba shaklga ega bo'ldi, kizakdagi jiyagi ingichkalashdi.[6] Xorazm milliy kiyimlari Milliy kiyimlar moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarni ko'rsatuvchidir. Kiyimlarda urf odatlar, ijtimoiy munosabatlar, diniy e'tiqod, nafosat va inson umrining fasllari, u yashagan joy va zamon, xo'jalik mavsumlari, xayotdagi quvonch yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi. Bizgacha yetib kelgan kiyimlar XIX asr oxiri XX asr boshlariga ta'luqli bo'lib, qadimgi davrlarga oidlari saqlanmagan, chunki kiyim matolar moddiy yodgorliklar ichida iste'molda bo'lgan va oxirgacha foydalanilgan. Xorazim aholisi yoshga qarab o'zgaradi, o'rta yoshli, keksalar kiyimlari, bosh kiyimlar duppilar, sallalar, turli - tuman telpaklar, cho'girmalarni o'z ichiga olgan. Poyofzallar charmdan tikilgan xilma - xil etiklar, maxsilar, choriklar, charm va yog'ochdan yasalgan kovushlardan iborat. Xivadagi xozirgi zamon kiyimlari yevropacha uslubda tikilgan bo'lsada, ularda milliy an'analarning davomiyligi

saqlanib qolgan. Bosh kiyimi jundan tayyorlanadigan bosh kiyimlar: cho'girma (to'galak, sherozi va silkma). Kigiz (namat)dan tayyorlanadigan bosh kiyimlar: qalpoq, kuloh, ip va ipakdan tayyorlanadigan bosh kiyimlar: tahya (chumakli, papakli, qazma); ro'mol (farang ro'mol, sochoqi beqaror, yo'rinja gulli ro'mol, to'r ro'mol, boki ro'mol, shaxmat ro'mol, qozoqi ro'mol) lachak (Xiva lachagi, Karvak va Pitnak lachagi), boshro'rov, o'ramol (shim. Xorazm); to'ppi (bolalar va keksalar to'ppisi - sappush) cho'tti (Xazorasp). Mo'ynadan tayyorlanadigan bosh kiyimlar: qunduz popoq yoki qunduz talpak (ondatra telpak), norka popoq (qorako'zan - norka terisidan tikilgan telpak), suvsar talpak (sobol - suvsar mo'ynasidan tikilgan telpak), quloqchin (ushanka). Xorazmda bosh kiyim davlat, g'urur, iftixor ramzi sanalgan, shuning uchun bosh kiyimni biror kimsa bilan almashtirish yoki birovga berish mumkin bo'lmagan. Otaning bosh kiyimi faqat uning o'g'liga berilgan. "Oyog'ingda mahsing bo'lmasa ham boshingda cho'girmang bo'lsin", degan keksalar. "

Xulosa qilib aytganda ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqloq davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchani nazarda tutmoq zarur edi. O'zbekiston xalqi asrlar davomida shakllangan urf-odatlar va milliy kiyimlari orqali o'zining madaniy boyligini, tarixiy ildizlarini va ma'naviy qadriyatlarini saqlab kelmoqda. Har bir urf-odat — xalq tafakkuri, ijtimoiy tuzum va diniy e'tiqodlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanib, jamiyatdagi axloqiy mezon va insonlararo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. To'ylar, fотиha, sunnat, Navro'z, beshik to'yi va boshqa marosimlar xalq ruhiyatini, birligini, oila va jamiyatdagi ahamiyatli qadriyatlarni mustahkamlab kelmoqda. Milliy kiyimlar esa bu qadriyatlarning tashqi ifodasi bo'lib, har bir hududda o'ziga xos uslub, bezak va mazmunga ega. Atlas, adras, do'ppi, lozim va kamzul singari kiyimlar faqatgina libos emas — balki tarix, san'at, tabiat, urf-odat va zamon talqini bilan uyg'unlashgan madaniy belgidir. Zamonaviy dunyoda yashar ekanmiz, bu urf-odatlar va kiyimlar o'z ahamiyatini yo'qotmasligi kerak. Ularni asrab-avaylash, yosh avlodga o'rgatish — bu millat sifatida o'zligimizni yo'qotmaslik, ildizimizdan uzilmaslik demakdir. Chunki xalq urfi va kiyimi — uning ruhi, tarixi va sha'nidir. Qadimdan bizga meros bo'lib kelgan, milliy liboslarmiz, bayramlarmiz ayniqsa do'ppido'zlik, zargarlik, kashtachilik san'ati juda taraqqiy etib kelmoqda. Bu esa milliy kiyimlarni saqlash va rivojlantirish zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi. Milliy liboslarning saqlanishi va rivojlanishi nafaqat xalqning madaniy merosini himoya qilish, balki uni jahon madaniy merosiga aylantirishga xizmat qiladi. O'zbek milliy liboslari o'zining go'zalligi va nafosati bilan jahon sahnasida tanilib, xalqning boy madaniy an'analarni dunyoga namoyish etmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asari 2008.
2. Otamurodov Otaxon Berdiyevich Kiyim turlari va ularning kelib chiqishi haqida. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, (2022). 1 (13), 164-166.
3. S.M.Rahimova, M.M.Karimova Bichish tikish asoslari Toshkent "DAVR PRES" 2002
4. Kasbiy fanlar metodikasi. Ma'naviy-marifiy, ilmiy nashr. 2018-yil aprel 4-son.
5. Sh.R. Marasulov. Paxta va ximiyaviy tolalarni yigrish. 2015.-214-222 b.

6. N.G.Abbasova, B.B.Axmedov, Sh.M.Maxkamova, T.A.Ochilov.Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi. 2016.-30-38 b.
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8055887>
8. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/milliy-istiqlo-l-g-oyasi/o-zbek-milliy-an-analari-marosimlari>
9. an-analari-marosimlari
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalqining-urf-odati-marosim-va-bayramlarining-an-anaviyligi>
11. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/482>



INNOVATIVE
ACADEMY